

BADIIY IJODDA TABIAT TASVIRINING TUTGAN O'RNI

Karimova Dilnoza

Annotatsiya: *Maqolada Sirojiddin Sayyid she'riyatida peyzaj lirikasi va tabiat tasvirining badiiy-estetik ahamiyati tahlil qilinadi. Shoir ijodida tabiat manzaralari inson ruhiy kechinmalarining ifodasi sifatida ko'rsatilgan. Tabiat obrazlari orqali shoir qalb iztiroblarini, sog'inch va armon tuyg'ularini nozik poetik shaklda yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Sirojiddin Sayyid, peyzaj lirika, tabiat manzarasi, ruhiy kechinma, lirik qahramon, badiiy tasvir.*

Adabiyot-inson badiiy tafakkurining oliy mahsuli, jamiyat ma'naviy-axloqiy qarashlarining prinsiplari va orzu-intilishlarini o'zida mujassamlashtirgan hayot haqiqati sarchashmasidir. Ana shu qudratli ma'naviy ro'ying manbalaridan biri-olam ostonasiga nurdan poyondoz to'shagan mo'tabar go'sha tabiat. Ijod ahli Qadim zamonlardan beri tabiatni tarannum etib, uning maftunkor go'zalliklarini, inson uchun ahamiyatini ta'rif-u tavsif qildilar. Ma'lumki, qadim zamonlardan beri badiiy adabiyotda tabiatni, uning go'zalliklarini kuylashga katta o'rin ajratilgan. Tabiat bitmas-tuganmas ilhom manbaidir. Har bir ijodkor xoh u yozuvchi bo'lsin, xoh shoir, xoh musavvir yoki bastakor bo'lsin, tabiat qo'shiqlariga quloq tutib, o'z tuyg'ulariga esh sadolarni, ranglarni izlaydi. Tabiatning sirli mo'jizalaridan bahramand bo'lish uchun olam bilan odam taqdiriningbirlikini anglash tabiatni insoniyat ma'naviy qiyofasiga ta'sir ko'rsatadigan kuch deb bilish, uning go'zal manzaralarini ko'z qorachig'iday avaylab asrash, ularga milliy boylik sifatida qarash, uni sevish taqozo qilinadi. Tabiatni chin dildan sevgan pokiza qalbli ijodkorgina undan haqiqiy estetik oziq ola oladi.

Darhaqiqat, tabiatni sevgan kishigina qushlar, daraxtlar, maysalar, hasharotlar, jilg'alar tilini tushuna oladi. Zero ona tabiatning har bir zarrasi takrorlanmas mo'jiza sanaladi. Bu qadimiy va boqiy tabiat falsafasini uqib olish uchun shoirona yurak bo'lish kerak. Chunki bu bulbullarning xonishini shunchaki sayroqi qush ovozi emas, balki betakror qo'shiq. Chumolilar, o'rgimchaklar, hatto jilg'alarining ham o'z qo'shig'i bor. Faqat bu qo'shiqlarni tushunish uchun tabiat bilan til topa bilish iqtidori zarur. Olam go'zalliklarini sevuvchi qalb sohiblaridan ona tabiat ham o'z marhamatini darig' tutmaydi: bunday kishilarga so'z sehri ila mo'jizalar yarata olish iqtidori berilgan. Tabiatni yuqori darajadagi estetik did bilan badiiy aks ettirish uchun ijodkor uni yurakdan his eta bilishi zarur.

Dunyo go'zalligi badiiy mo'jizalarga aylanganda, ya'ni inson tabiat va jamiyatdagi munosabatlarni tushunib, ruhida ularning intikosini his qila boshlaganda (insonning o'zi tabiatdagi eng oliy mavjudot, uning kamolotga erishgan jonli go'zal timsolidir),

san'at vujudga keladi, she'riyat ham ana shu hayotiy zarurat tufayli tug'ilgan. Boshqacha aytganda, poeziyaning mohiyati uning ma'noda go'zalligidir. Bu go'zallik bevosita inson ruhidagi va u orqali borliqdagi go'zallikning ijtimoiy mazmunga yog'ilgan inikosidir. Xuddi shu mujassam uyg'unlik har qanday she'riyat uchun, jumladan, yoshlar she'riyati uchun ham mezon bo'lib qoladi."

Tabiat badiiy adabiyotga estetik qimmat beruvchi buyuk kuch sifatida qadim zamonlardan beri ijodkor inson dunyoqarashining shakllanishida muhim ro'l o'ynab keldi. Insonning tabiatga munosabatida asosan quyidagi ikki jihat ko'zga tashlanadi:

- a) borliqni badiiy idrok etish
- b) borliqni badiiy tadqiq etish

Odam tabiat hodisalarini kuzatadi, o'rganadi, tashqi olamdan olgan taassurotlari bilan o'z ma'naviy dunyosini boyitib boradi. Mohiyatiga ko'ra tabiat farzandi bo'lgan insonning ilk poetik qarashlarida borliq jonli mavjudotlar olami sifatida tasvirlangan. Chunki bir zamonlar odamzod tabiatdan ajralmagan holda, uning bir bo'lagi sifatida yashagan, atrofidagi barcha hodisalar-u narsalarni ilohiylashtirib qabul qilgan. Tabiatni poetik tadqiq etishning dastlabki namunasi sifatida inson atrofdagi olamni ilohiy, mifologik idrok etish bosqichi yuzaga keldi. Ijodkorning tabiatga munosabati har bir davr ijtimoiy axloqiy qarashlari bilan belgilanadi.

Inson hamisha tabiat qo'ynida yashab keldi, jamiyat tarixi ma'lum ma'noda tabiatning tarixi hamdir. Jamiyatning taraqqiyot yo'li tabiatni poetik tadqiq etish va badiiy idrok etish bosqichlarini ham o'z ichiga oladi. Olam bilan odam taqdiridagi uzviy bog'liqlik bois tabiat hodisalarini tasvirlayotgan shoir badiiy tafakkurning markazida jamiyat bilan tabiatni qiyoslashga moyillik borligi seziladi. Ijodkor tabiatdan o'z aksini, aytolmagan so'zlarini, g'unchalarning mehr to'la ko'zlarini izlaydi. Tabiatni poetik tadqiq etayotgan inson undan jamiyatga xos xususiyatlarni axtaradi, borliqini o'z hayoti, o'y-kechinmalari bilan qiyoslaydi, ularning o'xshashligini ko'rib, hayratlanadi. Har qanday tabiat manzarasi shunchaki tasvirlanmaydi, bu tasvir asosida ijodkor qismati, his-tuyg'ular olami, uning muayyan ijtimoiy-estetik qarashlari yotadi.

Turli davrdagi shoirlarning tabiat haqidagi she'rlarini o'rganish asosida har bir davr odamlarining olamga munosabati qanday bo'lganligini aniq belgilash mumkin. Eng qadimgi davrlarda odam o'zini tabiatning bir bo'lagi deb o'ylagan, unga sig'ingan bo'lsa asrimizning 70-80-yillariga kelib, inson o'zini tabiatning uzviy qismi emas, balki uning egasi sifatida his qila boshlaganini, bu esa ekologik muammo deb atalmish fojiga sabab bo'lganligini ko'rsatadi. Odam azaldan benuqson, ozod maskan deb bilgan ona-tabiat bag'riga qaytishga intiladi, jamiyat tushunmagan, eshitishni xohlamagan dardlarni aytib, tabiat bilan hasratlashgisi keladi. Shu tariqa tabiat poetikasining muhim semantik qirralari: olamni badiiy idrok etish, tabiatdan o'z dardlariga malham izlash, tabiat ohanglaridan she'riy shakl axtarish, o'z ijodiy

iqtidorini tabiatning yaratuvchilik qudrati ila qiyoslash, jamiyatning og'riq nuqtalariga tabiatdan madad tilash, tabiatni asrashga chorlash, tabiatga aylanish istagining poetik talqini yuzaga keldi. Bularning barchasi tabiatning falsafiy estetik mohiyatini chuqur tahlil etish uchun, eng avvalo, uni yuksak did va pokiza qalb bilan his qila bilish zarurligini ko'rsatadi. Tabiatni poetik idrok etib, obrazli ifodalar orqali badiiylashtirish usullaridan biri peyzaj san'atidir. Peyzaj ijodkor ilgari surgan muayyan g'oyani ifodalashga xizmat qilgani uchun ham muhim estetik ahamiyatga ega. "Peyzaj (fransuzcha paysage – joy, manzara) badiiy adabiyotda aks ettirilgan tabiat manzarasi tasviri. Inson tabiatning bir uzvi sifatida undan zavqlanadi, bahra oladi. Insonning tabiatga munosabati chuqur va keng qamrovli falsafiy-axloqiy-ma'naviy hodisa. Shuning uchun ham ushbu hodisa san'at va adabiyotning doimiy tasvir ob'ekti sanaladi.

Tabiat lavhalari ko'pincha qahramonlarning kayfiyati va ruhiy holatiga uyg'un tarzda ifodalanadi. Masalan, Alisher Navoiy «Layli va Majnun» dostonida ikki yosh yurakda muhabbat kurtak otgan davrni bahor ayyomi – Navro'z bayrami fonida, sevishtanlarning fojiali o'limini esa, so'lg'in xazon faslida tasvirlash bilan kitobxon fikri hissiy olamida hayajonli taassurotlar uyg'otadi. Yoki realist-yozuvchi L.Tolstoy o'zining mashhur «Urush va tinchlik» epopeyasida tinch va osuda o'tloq va o'rmonlar manzarasiga juda ko'p murojaat qilganligi barchaga ma'lum haqiqat. Bular barchasi ijodkor qalbidagi urushga qarshi nafratning, osoyishta turmush afzalligini ta'kidlayotganining o'ziga xos badiiy in'ikosidir.

A.Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzaev, O'.Hoshimov kabi yangi davr o'zbek nasri vakillari asarlarida ham tabiat manzaralari va hodisalariga jiddiy e'tibor bilan qaralganini, ularga muhim g'oyaviy-badiiy vazifa yuklanganligini kuzatishimiz mumkin. Peyzaj adibning metodi, uslubi va g'oyaviy maqsadiga doxil o'laroq turlicha vazifalarga yo'naltirilgan bo'ladi. Asar tarkibidagi tabiat tasviri lirik qahramon va boshqa personajlar qalbini ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Masalan, lirik qahramonning o'z ma'shuqasiga bo'lgan sog'inchi va intilishi, qo'msash holatlari, ayriliq dardining alamli iztiroblari A.Oripovning «Sen bahorni sog'inmadingmi?» she'ridagi peyzaj tasviri vositasida juda ta'sirli va nafis aks ettiriladi. Ayrim hollarda badiiy asardagi peyzaj ramziy ma'no kasb etib, o'quvchini bo'lajak voqeaga ruhan tayyorlash vazifasini o'taydi. Chunonchi, O'.Hoshimovning «Qalbingga quloq sol», «Bahor qaytmaydi» qissalarida bo'ron, chaqmoq, jala kabi tabiat hodisalari qahramonlar halokati haqida kitobxonni ogohlantiruvchi bir vositadek taassurot qoldiradi. Tasviriy san'at asarlarida muayyan joy yoki fasl manzarasi musavvir tomonidan moybo'yoqlar sehri ila tasvirlansa, badiiy adabiyotda tabiat yozuvchining obrazli fikrlash mahorati bilan so'zlar vositasida qayta jonlanadi. Tabiat hodisalarini kuzatgan ijodkor o'zining ma'naviy holatini boyitadi, olamning estetik tasiridan tug'ilgan tuyg'ular manzaraning san'at darajasiga ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Manzara- tabiatning adabiyot va san'atdagi badiiy obrazidir. Tabiat hodisalari manzaraning tarkibiy qismi hisoblangan obrazlarning yaratilishiga asos bo'ladi. Ammo bu jarayon birmuncha murakkab bo'lib, tabiatdagi narsa va hodisalar shoir ijodiy nazaridan o'tgandan keyingina badiiy materialga aylanadi. Manzara- tabiat qo'shig'i, bu qo'shiqda tasvirlangan har bir narsa va hodisalarda o'ziga xos ramziy ma'no bor.

Tasviriy san'at va badiiy adabiyotdagi peyzajning bir-biridan farqlanuvchi belgilari, shuningdek, o'zaro tipologik o'xshashliklari ham bor. Badiiy tafakkurning bu ikki turidagi peyzajni bir-biriga yaqinlashtiruvchi belgilar muayyan manzaraning tabiiy asosi mavjudligi, tabiatdagi narsa va hodisalarning ijodkor estetik tuyg'ulari orqali "poetiklashishidir". Tasviriy san'at va badiiy adabiyotdagi peyzajning bir-biridan farqli jihatlari shundan iboratki, avvalo, tasviriy yoki grafik san'atdagi peyzaj mustaqil janr hisoblanadi, manzara lirikasi esa badiiy adabiyotdagi nasriy, nazmiy yoki dramatik turga kiruvchi muayyan janr emas. Peyzaj adabiyotdagi har qanday asarda, xalq qo'shiqlaridan tortib, she'r, roman, qissa va hikoyalarda ham uchraydi. Manzara lirikasi she'riyatimizda alohida semantik gruppani tashkil etadi.

Ma'lumki, shoirning qo'liga qalam olib, muayyan peyzajni yaratishdan maqsadi tabiat go'zalligini inson faoliyati bilan bog'liq holda badiiy talqin etish istagidir. Bu istak ijodkorning tabiatga bo'lgan estetik munosabatini va uning badiiy so'zdan foydalanish iqtidori- poetik mahorati tufayli amalga oshadi, hamda peyzaj yaratiladi. Inson va tabiat tasviri peyzaj yaratish usullarining o'ziga xosligi, bu uslubni ro'yobga chiqarishda obraz, voqea va tasvir elementlarining ro'li, peyzaj tasnifi masalalarini yaratishda yoshlar she'riyatidan yuksak mahorat bilan yaratilgan asarlarni ko'plab topish mumkin.

Manzara tasviriga bag'ishlangan she'rlar shoir tuyg'ularini g'oyat nozik badiiy ifodalar va ayni vaqtda kuchli ehtiros bilan talqin qiladi. Lirik she'rlarda bu ehtiroslar qahramon ichki kechinmalari orqali ochib berilgan bo'lsa, peyzaj asarlarida muayyan tabiat manzarasi vositasida bilvosita ifodalanadi. Tabiat manzarasining obrazli fikrlash natijasida yaratilgan tasviri esa o'quvchida kuchli poetik assosiatsiya uyg'otadi. Zero "poetik manzara asarlari ham qalblarga qo'shiqdek oqib kirishi, fikr uyg'otishi, go'zallikka, ezgulikka muhabbat tug'dirishi kerak".¹² Bundan tashqari peyzaj zimmasiga juda muhim ijtimoiy funksiya ham yuklanadiki, bu ijodkorga o'zi tasvirlayotgan tabiat manzarasini hayotimizning eng muhim muammolari bilan bog'lash imkonini beradi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida peyzaj lirikasining o'rni beqiyosdir. Tabiat hodisalari orqali inson ruhiyatini badiiy talqin etish ko'plab shoirlar ijodining asosiy uslubiy xususiyatiga aylangan. Bu jihatdan Sirojiddin Sayyid ijodi e'tiborga molikdir.

¹² Norboev B. Kurashchan she'riyat. Toshkent, 1977, 141-bet.

Shoir o‘z she’rlarida tabiat tasvirini shunchaki fon sifatida emas, balki inson qalbining ichki holatini ifodalovchi vosita sifatida ishlatadi. “Ilinj” she’rida u nasim obrazidan foydalanib, yurakdagi dardlarini bahor bilan bo‘lishadi. Bahor shoir uchun dardkash, sir dosh timsolidir:

Men bir nasim bo‘lib keldim, men bir nasim,

Aytib o‘tsam deyman ko‘hna dardlaringdan.

Shoirning “Alamli dunyo” she’rida esa tabiat tasviri orqali ayriliq, sog‘inch va iztirob tuyg‘ulari tasvirlanadi. Oy, daraxt, bog‘ obrazlari orqali inson qalbining chuqur iztiroblari badiiy shaklga kiradi:

Sen ketding, muzladi o‘ng ila so‘lim,

Alamli dunyoda alamli gulim.

Tabiat manzaralari shoir she’riyatida insoniy kechinmalarning timsoliga aylanadi. Tabiatdagi sokinlik, bahorning iliqligi yoki soylarning jim oqishi — bularning barchasi lirik qahramon ruhiy holatining badiiy in’ikosi sifatida namoyon bo‘ladi.

Sirojiddin Sayyid tabiatni chuqur his etuvchi, unda inson ruhiyatining aksini ko‘ra oluvchi shoir sifatida e’tirof etiladi. Uning peyzaj lirikasi badiiy rang-barangligi, so‘z ma’nolarining nozikligi va poetik ohangdorligi bilan ajralib turadi.

Sirojiddin Sayyid she’riyatida tabiat tasviri inson ruhiy olamining ifodasi sifatida xizmat qiladi. Shoir tabiatni hayot falsafasi, insoniy kechinmalarni yorituvchi estetik vosita darajasiga ko‘taradi. Shu bois uning peyzaj lirikasidagi manzaralar o‘quvchini chuqur tuyg‘ular olamiga olib kiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Oripova G, Ibrohimova G. Sirojiddin Sayyid ijodida mumtoz mushtarakliklar // Inertational scientific journal of Biruni. Oct. 2022;

2.Abdulhamidova H., Saminjonova M. Mustaqillik davri she’riyatida milliy detallarning ifodalanishi // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2022. November; 4.Payzullayeva R. Sirojiddin Sayyid ijodida xalq og‘zaki ijodi an’analari // “O‘zbek adabiyotining dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman. – Navoiy, 2023;

3. Jabborov N. Men she’r aytsam, bu hayot yana sha’n hayot bo‘lgay... // O‘z AS, 2023. № 42; Жабборов Н. Шоирнинг буғдой сўзи // Халқ сўзи. 2024 йил. №143;